

Oqila TURAQULOVA,

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili ta'limi fakulteti dotsenti

ADABIYOT DARSIDA "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONINI O'RGANISH

Adabiyot fani o'qitishda o'qituvchining uslubiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning eng samarali usullaridan oqilona foydalangandagina o'qituvchi ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Jumladan, "Layli va Majnun" dostoni bo'yicha dars o'tishda o'qituvchi darsni uch qismga ajratishi maqsadga muvofiq: birinchi va ikkinchi qismlarda matn o'qiladi, keyin tushunilishi qiyin so'zlar lug'at yordamida tushuntiriladi. O'quvchilar anglamay qolgan boshqa so'zlar ma'nosi ham tushuntiriladi. Agar dars jarayonida biror-bir so'zning ma'nosini anglatishning imkoni bo'lmasa, uni uyda lug'atdan ko'rib kelish lozim. O'qituvchi bundan aslo xijolat bo'lmasligi kerak. Agar o'qituvchi darsga "Navoiy asarlari lug'ati"ni olib kirsa va o'quvchilarga lug'at yordamida tushunarsiz so'zlarni izohlab bersa, saboq yanada samarali bo'ladi. Shu bahona o'quvchilar lug'at bilan ishlashni o'rganadi. Ba'zi bir o'qituvchilar dostonida tushunarsiz so'zlar ko'p, shuning uchun asar mazmunini aytib berib qo'ya qolgan ma'qul deb o'ylaydilar. O'quvchini badiiy matn jozibasidan bahramand etish o'miga uning mazmunini shunchaki so'zlab berish adabiy ta'limdan kutilgan ma'naviy-estetik samarani yo'qqa chiqaradi. Darhaqiqat, hazrat Navoiy asarlarining tili o'quvchilarga murakkabdek tuyuladi, lekin bu asarlar shunchalik jozibalik, beixtiyor o'quvchida ularning ma'nosini anglashga ishtiyoq uyg'otadi. Buning uchun esa, ulug' shoir asarlarini ifodali, ta'sirchan ohangda qayta-qayta o'qish zarur.

Dostonidan parcha ifodali o'qilgandan so'ng, tushunilishi qiyin bo'lgan har bir so'zga izoh beriladi. O'qituvchi o'quvchilarni doston ohangini, undagi o'g'itlar zamiridagi teran ma'noni anglaydigan holatga solishi lozim. Agar o'qituvchi darsning boshidayoq shunga kirishsa, pedagogik niyatga osonroq erishadi, ya'ni o'quvchilarga asar haqida chuqurroq ma'lumot bergan bo'ladi. Bu ma'lumotlar o'quvchida qiziqish uyg'otadi va u asarni o'qiy boshlaydi.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida sevgi haqida bitilgan dostonlar orasida "Layli va Majnun" eng dardli va g'amgin asar sanaladi. Doston naqadar g'amgin bo'lsa, shu qadar shuhrat topgan, keng yoyilgandir. Bu sevgi qissasi qanchalik mashhur bo'lsa, shunchalik qadimiy hamdir. Uni mutaxassislar G'arbda yaratilgan "Romeo va Julietta" asaridan ham mashhurroq deb hisoblaydilar. Sevgi mavzusida jahon adabiyotida salkam o'n uch asrdan beri she'r va dostonlar bitilib kelinadi. "Layli va Majnun"ning manbayi qadim arablar hayoti bilan bog'liq voqealarga borib bog'lanadi. Mutaxassislar orasida bu borada ikki xil fikr bor: ayrimlar Majnunni tarixiy shaxs,

oti Qays ibn Mulavvah, yoshligida tuya boqib yurganda amakisining qizini sevib qolgan, she'rlar yozgan, devon ham tuzgan, u haqida ko'plab rivoyatlar, hikoyatlar yaratilgan, deydilar. Ikkinchi bir fikrga ko'ra, u – to'qima obraz.

Qays obro'li bir odamning farzandi bo'lib, aqlan ham, jisman ham, husnda ham yetuk bo'lgan. U har jihatdan o'ziga munosib Laylini sevdi, sevildi. Biroq Laylining otasi uni o'z qiziga munosib ko'rmadi. Odamlar esa uni majnun (telba), deb atadilar. Oqibatda u odamlar orasidan bosh olib ketdi, jamiyat uni rad etdi. Tabiat esa, uni o'z bag'riga oldi. Birinchi marta Nizomiy dostoniga aylantirgan va "Layli va Majnun" deb atagan asarga bir yuz-u o'n sakkizta nazira bitilgan.

Ulardan oltmish yettitasi fors, o'ttiz yettitasi turkiy tilda. Kurd (7), urdu (7), panjob (2), afg'on, arman, gruzin tillarida yozilgan naziralar ham bor. Hazrat Navoiy: *Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu fasonani hikoyat*, deb boshlangan bu dostonining mazmuni chuqurligini ta'kidlab, afsona faqat libos ekanligi, uning mazmunidagi teran insoniy dardni, qahramonlari qalbidagi majoziy muhabbat ilohiy ishq darajasiga yetganini aks ettirish asosiy maqsadi ekanini ta'kidlaydi:

*Men xastaki, bu raqamni chekdim,
Tahriri uchun qalamni chekdim.*

Shoir dostonidagi obrazlarning xatti-harakatlari hayotiylikni dalillash, psixologik asoslashga ahamiyat beradi. Qiziga Majnunning oshiqligidan xabar topgan Laylining otasi ruhiyati asarda juda puxta aks ettirilgan. U Qays boshiga tushgan savdolarni aytgan kishiga yigitni bilishini, uning holi, ayniqsa, ota-onasining ahvolidan qayg'urib, hamdardligini: *Ta'rifida ko'p o'tar edi so'z, Go'yoki anga tegurdilar ko'z* mazmunida bildirgan odam yigitning Layli ko'yida shu holga tushganini, har bir she'rida uning ismini bitishini eshitgach, tamomila o'zgaradi. Shoir buni nihoyatda hayotiy va ta'sirli aks ettirgan. Noqulay ahvolga tushgan suhbatdosh, uyatga qolgan erkakning nomus qilishga majbur holati dostonida g'oyatda ishonarli bayon qilingan:

*Eshitguchi bildikim, nedur hol,
To'lg'ondi o'ziga o'ylakim nol.*

Shoir ayni vaziyat uchun eng muvofiq ruhiy holat tasvirini beradi. Bu o'rinda suhbatdoshlarning har ikkisi ham jonli odam, zimmalaridagi og'ir ma'naviy yukni ko'tarib borishga mahkum kimsalar sifatida ishonarli

ko'rsatilgan. Dostonda Majnunga aylangan zanjirband Qaysning iztirobli holatini shoir ulkan dard bilan tasvirlaydi:

*Bir necha kun uyda edi poband,
Faryod anga goh baland-u goh past.*

Tasvir Majnunholatiga juda mos. Badiiy manzara so'z va undagi ma'no tovlanishlari tufayli yuzaga kelgan rangin tasvirlarda chizilgan. Uyida o'tirishga majbur etilgan va oshiqlik dardiga muhtalo bo'lgan yigitning goh baland, goh past ovozdagi faryodi, tuzoqdagi qush singari o'zini har tomonga urishi, Layliga ishq sabab na yemak-ichmak va na uyqu borligi, suygani ko'yida ko'nglida hushyorlik yo'qolgani, ishq o'ti yigit tanidan ko'ngilning o'zini ham, unga qo'shib hushini ham kuydirib yuborgani tasviri Majnun ruhiyatini ifodalash jihatidan tengsiz badiiy ta'sirchanlik kasb etgan. Asarda ma'shuqasidan ayrilgan oshiq nolalari juda ham dardli:

*Men xastani aylamakta mavjud,
Ne erdi ekin qazog'a maqsud?!*

Bu alamli so'roqlarda so'ngsiz dard-iztirob bor. Qays ne sababdan muhabbat otashiga duchor bo'lganini bilgisi, ishq o'ti uning ko'ngliga qachon tushganini idrok etgisi kelgani asarda g'oyat nozik tasvirlangan. U ruh kishisi sifatida ko'nglidagi dard shunchaki jismoniy intilish emasligini anglaydi. Uni bezovta qilayotgan, bu dunyo tashvishlaridan yiroqlarga olib ketayotgan alangali tuyg'u jismda kechadigan darddan chuqurroq ekanini idrok etadi. Shu bois: *Ko'nglum uyin etti qayg'u zindon, Jism uyi yana qorong'u zindon*, deya nola chekadi. Qays ishqda ixtiyorsizligini, bu tuyg'u uning uchun ham jazo, ham mukofot ekanini biladi. Navoiy oshiqning shu holatini juda nozik ifodalagan. Majoziy ishq bilan bog'lanuvchi bu lavhalar haqiqiy ishq yo'lida Allohni anglash, uning visoliga erishish mashaqqatlariga ishoradir. Asarning eng ta'sirchan joylaridan biri Majnun Makkaga olib borilishi lavhasi. O'g'lining ahvolidan chorasiz qolgan ota uni Ka'baga olib boradi. Orzu qiladiki, Qays bu muqaddas joyda dardiga shifo tilasa, ya'ni Layliga bo'lgan muhabbatidan qutulishni Yaratgandan so'rasa. Biroq buning aksi bo'lib chiqadi. Majnun Ka'bani aylanib, muqaddas toshga halqa-halqa ko'z yoshlarini oqizar ekan: *Ko'nglumg'a mila to'q ayla, yo rab! Ishq ichra meni yo'q ayla, yo rab!*, deya qilgan nidolarda Qaysga xos sifatlar yorqin namoyon bo'ladi. U g'am chekayotganidan, ishq yo'lida abgor bo'lganidan qayg'urmaydi. Aksincha, ko'nglumni g'am ila to'q ayla, yo rab, deya iltijo qiladi. Xushta'm ishq mayining

"jomi talabig'a" ko'proq quyilishini istaydi. Demak, u qismatidan norozi emas. Ishqsizlikni, g'amsizlikni baxtsizlik deb hisoblaydi.

Shoir Layli va Majnun yozishmalariga ulkan ma'no yuklaydi. Ayniqsa, Laylining maktubi mazmunan teranligi, qizning ko'ngil rozini ifodalashi jihatidan tengsizdir. Maktubda mehr-muhabbat iqrori ham, sadoqat izhori ham, ayni paytda, Sharq ayolining jamiyatdagi o'rni haqida bezovta o'ylar ham mujassam. Dostondan olingan quyidagi misralar qizning ijtimoiy mavqeyi hamda ruhiy holatini to'kis ifoda etadi:

*Sensizki g'amim dame kam ermas,
Sendin gar emas ko'p, oz ham ermas.*

Dardi ichida qolgan qizning holatini bundan-da aniq ifodalash mushkul. Uning ham qalbida sevgi o'ti lovilab yonmoqda. Ayriqliq uning qalbini ham omonsiz o'rtaydi. Doston oxirida "Ishq ta'rifida" degan maxsus bob keladi. Shoir unda Layli va Majnun taqdirida afsonaga o'rab berilgan mazmunni sharhlaydi. Ushbu bob ishqning ta'rifi bilan boshlanadi:

*Ey, ishq, g'arib kimyosen,
Val oyinayi jahonnamosen.*

Shoir ishqni misni oltinga aylantiruvchi kimyoga va jahonni aks ettiruvchi oynaga o'xshatadi, buni atroflicha dalillashga intiladi. Shoir inson umrining mazmun-mohiyatini ishqda ko'radi.

Uningcha, insonning insonligi ishq tufaylidir. Bir-birining vasliga yetolmagan yigit-qizning muhabbat mojarolarini tasvirlash orqali Allohga bo'lgan ta'masiz muhabbat madh etilgan doston jahon adabiyotida ishq mavzusida bitilgan eng buyuk badiiy obidadir. Navoiyning "Layli va Majnun"i mazkur sujetning ishlanish tarixida alohida bir bosqich bo'lib qoldi. Undan yarim asr keyin yashagan va shu mavzuda alohida doston bitgan ulug' ozarbayjon shoiri Fuzuliy Navoiyning badiiy mahoratiga yuksak baho berdi. Qissa xalqimiz orasida keng yoyildi, ushbu mavzuda xalq dostoni yuzaga keldi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o'qituvchisi badiiy asar bilan o'quvchi orasida ko'prik vazifasini o'taydi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-ruhiy takomilini ta'minlashni ko'zda tutishi kerak. Ruhiy takomil asar matni zamirida ma'noni ilg'ash, turli badiiy ifodalar ostida "yashirinib yotgan" jozibani his etish imkonini beradi. Qolaversa, o'quvchilarning asarni puxta o'zlashtirishi, to'g'ri anglashi, baholashi hamda tahlil qila olishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B., Mirsamiqova R. Adabiyot. Majmua. 2-kitob. – Toshkent: Cho'lpon, 2013. 80–81-betlar.
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Xamsa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. 145–195-betlar.
3. Qosimov B., Karimov N. Adabiyot o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent, 2003. 12–13-betlar.
4. To'xliyev B., Muzaffarova S. "Layli va Majnun"dagi bir bayt tahlili. Navoiyga armug'on. – Toshkent: Fan, 2004.